

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TABIIY FANLARDAN SINFDAN
TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH**

Alimardonova Mo‘tabar Xolmo‘minovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, atrof-muhit, tabiat, tajriba, ekologik madaniyat, ko‘rgazmalilik, kreativlik.*

Annotation: *This article discusses the importance of organizing extracurricular activities in primary education.*

Key words: *ecology, environment, nature, experience, ecological culture, exhibitionism, creativity.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonini sifatli tashkil etish orqali, kelajak umidi bo‘lmish yoshlarni har tomonlama zukko va teran fikrlaydigan shaxs sifatida kamol toptirishga erishish mumkin. Mamlakatimizda yosh avlodni sifatli ta‘lim olishlari uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta‘lim tizimimiz tubdan isloh qilinmoqda. Bunga misol tariqasida umumiy o‘rta ta‘lim maktablardagi Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan yangi tahrirdagi darsliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu darsliklardagi asosiy yangilik va o‘zgarish esa nazariya va amaliyotning birgalikdagi uyg‘unligi desak adashmagan bo‘lamiz. Ya‘ni bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar darsda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalarni amaliyotda qo‘llab hayotga tadbiq etib borishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI



Tadqiqot jarayonida ko‘plab ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar, boshlang‘ich sinf darsligi va boshqa adabiyotlardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darsligida ham nazariya va amaliyot uyg‘unligi aks etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, nazariy olingan bilimlar, amaliyotda o‘z isbotini topadi. O‘quvchi darsda o‘zlashtirgan har bir tushunchasini amaliyotga tatbiq etib boradi. Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar darsligi ham bir nechta fanlarni o‘zida mujassam etgan fan hisoblanadi. O‘quvchilar dastlabki asosiy va zarur bilimlarni asta-sekinlik bilan o‘zlashtira boradilar. Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish orqali, o‘quvchilarda ushbu fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga erishish mumkin. Bundan tashqari o‘quvchilar dars jarayonida nazariy olgan bilimlarini amaliyotda sinovdan o‘tkazib ko‘rishadi. Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- *“Yosh tabiatshunoslar” to‘garagini tashkil etish.*

Ushbu to‘garakni tashkil etish orqali, o‘quvchilarni tabiiy fanlarga bo‘lgan mehrini va qiziqishini oshirishga erishish mumkin. Qolaversa, ushbu to‘garakda dars jarayonlarida o‘tilgan mavzularni yanada mustahkamlash, shu bilan bir qatorda o‘quvchilar bilan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

- *“Yosh ekologlar” volontyorlik jamoasini tashkil etish.*

O‘quvchilarda atrof-muhitni asrab-avaylash, tabiatga bo‘lgan mehrini yanada oshirish ko‘nikmasini shakllantirish uchun ushbu jamoa shakllantirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu jamoani tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhitni asrab-avaylash ko‘nikmasini shakllantirish, tabiatga bo‘lgan mehrini yanada oshirish hisoblanadi. Agar o‘quvchilarda ekologik madaniyat bolalik paytlaridanoq shakllantirilsa, o‘quvchilarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko‘nikmasi ham yanada mustahkalanib boraveradi. Shu kabi ko‘nikmalar insonlar ongida qancha ko‘p shakllansa, ekologiya bilan yuzaga keladigan turli muammolar soni ham asta-sekin kamayib boradi.



- *Tabiatga sayohat sinfdan tashqari darslarni tashkil etish.*

Hafta davomida bir marta yoki 1 oy mobaynida 2 yoki 3 marta o'quvchilar bilan birgalikda, tabiat qo'yniga sayohat tashkil etish orqali o'quvchilarda tabiat, olam haqidagi tushuncha-tasavvurlarni yanada oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

- *Fan yuzasidan turli viktorina, olimpiada, bellashuvlar tashkil etish.*

O'quvchilarni tabiiy fanlar yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini baholash va aniqlash maqsadida tabiiy fanlar yuzasidan o'quvchilar o'rtasida turli viktorinalar, fan olimpiadalari tashkil etish yaxshi samara beradi. Ushbu jarayonni tashkil etish orqali, o'quvchilarni yanada o'qib izlanishga undash mumkin. Bunda o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish mumkin bo'ladi. O'quvchilarni bilim saviyasi va fikrlash doirasi yanada kengayadi.

- *Maktabda turli ko'rgazmali namoyishlarni tashkil etish.*

Tabiiy fanlar yuzasidan ko'rgazmalilik muhitini maktab hududida tashkil etish natijasida, barcha o'quvchilarni har tomonlama iqtidorlarini yuzaga chiqarishga erishiladi. Bunda haftada 1 kun turli ko'rgazmali chiqishlar, tadbirlar tashkil etish ko'zda tutiladi.

XULOSA

Shuni ta'kidlash joizki, ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarini tashkil etish, judayam ahamiyatli jarayondir. Chunki sinfdan tashqari ishlar vositasida o'quvchilarni tabiiy fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga erishiladi. O'quvchilarni bilim saviyasi, nazariya va amaliyotni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni sodda, oson usulda o'rgatish usullarini ishlab chiqish va ushbu jarayonni amalga oshirishda kreativlik bilan yondashish ham katta samara beradi. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda har bir o'qituvchining mahorati va ijod-korligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari ishlar qanchalik qiziqarli va mazmunli tashkil etilsa, o'quvchilarni fanni o'zlashtirishga, o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi va harakati yanada oshadi desak adashmagan bo'lamiz. Zero yosh avlod Vatan ertasi,



kelajak umididir. Yoshlarni sifatli bilim olishi va kamol topishi esa yurtning yuksalishi va ravnaq topishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich sinf "Tabiiy fanlar" darsligi;
2. Abdullayeva M., Bahriyeva G. "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarni o'qitishda sinfdan tashqari ishlar";
3. Kayumova K. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish";
4. Xalikova G., Saydova Sh. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarning o'qitilishi";
5. Nuriddinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi", Toshkent – "O'qituvchi" nashriyoti.